

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.


Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
 (1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

36 412



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4958



Oilaviy korxonona

201



Unitar korxonona

6224



Xususiy korxonona

47



Aksiyadorlik jamiyati


317



Boshqa korxonalar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)






Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)


Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,7 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



460

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

9 026

Ishlab chiqarish sanoati

56

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

180


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 9 722 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 2,2 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 2,3 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 12,5 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 8,2 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) kamaygan.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




3,0 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,8 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




6,9 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **19,4** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 4023 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 4,6 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 25,2 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,4 %), korxonalar sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 3,7 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,3 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 16 120 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 6,7 %ga (jami savdodagi ulushi 66,9 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 19,1 %ga (jami savdodagi ulushi 26,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 15,0 %ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

853



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

33



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

32



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



394

yashash bo'yicha xizmatlar



3 599

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 993 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 3,5 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 7,9 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,9 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 5437 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 458 taga yoki 9,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 958 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 368 taga yoki 8,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 652 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 221 taga yoki 25,3 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 39 459 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 500 taga yoki 6,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 36 412 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 917 taga yoki 8,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4134 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 679 taga yoki 14,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 1 668 tani tashkil etib, ulardan 1 583 tasi yoki 94,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 157 taga yoki 11,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 167 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1668	742	926
Oqqo'rg'on t.	20	6	14
Ohangaron t.	90	33	57
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	73	39	34
Bo'ka t.	16	5	11
Quyichirchiq t.	52	26	26
Zangiota t.	212	83	129
Yuqorichirchiq t.	127	58	69
Qibray t.	177	80	97
Parkent t.	31	12	19
Piskent t.	27	11	16
O'rta Chirchiq t.	110	39	71
Chinoz t.	31	14	17
Yangiyo'l t.	97	33	64
Toshkent t.	90	49	41
Nurafshon sh.	76	29	47
Olmaliq sh.	55	16	39
Angren sh.	110	71	39
Bekobod sh.	32	20	12
Ohangaron sh.	49	24	25
Chirchiq sh.	109	64	45
Yangiyo'l sh.	74	24	50

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi

ASOSIY SAHIFA | QO'MITA HAQIDA | AXBOROT XIZMATI | INTERAKTIV XIZMATLAR | OCHIQ MA'LUMOTLAR | MUHOJATLAR | KONTAKTLAR

Asosiy / INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari

Xizmatlar ro'yxati
Elektron hisobot
KTYaDR ma'lumotlari
Uslubiy materiallar
Statistik klassifikatsiyalar
Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati
Korxonalar pasporti

RASMIY STATISTIKA

- E'lon qilish taqvimini
- Metama'lumotlar
- Makroko'rsatkichlar
- Milliy hisoblar
- Narx va indekslar
- Investitsiyalar
- Qurilish
- Tashqi iqtisodiy faoliyat

FOYDALI MA'LUMOTLAR

- Aholini ro'yxatga olish-2022
- Harakatlar strategiyasi
- Press-revizlar
- Choraklik natijalar
- Nashrlar – statistika haqida
- Uslubiy materiallar
- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar

STIR kodini kiriting

Rasmdagi kodni kiriting

Kodni yangilash uchun rasimga bosing

Qidiruv

<https://stat.uz/uz/hizmatlar/klassifikatsiya>

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83